

ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN UNUMLI FOYDALANISHNING QULAYLIKHLARI

Raxmonova Xilolaxon Adashevna

Andijon viloyati Qo'rg'ontep tumani 16- mактабнинг она тили va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotasiya: Hozirgi kunda zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, ilm-fan ham bir joyda to'xtab qolganicha yo'q. Unga ham yangidan-yangi zamonaviy, innovatsion, har tomonlama qulay bo'lgan, jahon standartlariga mos keladigan turli texnologiyalar, uslublar, metodlar kirib kelmoqda. Albatta har bir fanning maqsad, vazifalardan kelib chiqqan holda shunga mos ravishda texnologiyalar tanlanadi. Shu jumladan, она тили va adabiyot darslarida ham o'zi uchun maxsus yaratilgan texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqolada zamonaviy interfaol usullardan foydalanish, ularning dars jarayonidagi samaradorligi haqida ma'lumot berib o'tamiz.

Kalit so'zlar: interfaol usullar, texnologiya, она тили va adabiyot, jahon standarti, fikrlash, babs yuritish

Abstract: Nowadays, while time is rapidly developing, science does not stand still. Modern, innovative, convenient in every way, various technologies, styles and methods that meet world standards are entering it. Of course, based on the goals and tasks of each discipline, technologies are chosen accordingly. Including, it is appropriate to use technologies specially created for him in native language and literature classes. In this article, we will provide information about the use of modern interactive methods and their effectiveness in the teaching process.

Key words: interactive methods, technology, mother tongue and literature, world standard, thinking, arguing

Bugungi shiddat bilan jadallahib borayotgan taraqqiyot davrida dunyo har daqiqada o'zgarmoqda va o'sib kelayotgan avlodning fikrashi, dunyoqarashi turlicha va bu jarayon bugungi ta'lim tizimida o'qituvchining tinimsiz izlanishga, yangidan yangi g'oyalarni qo'llashga, ta'limda innovatsion texnalogiyalardan, AKTdan foydalanish zaruratini tobora orttirmoqda. Bu o'qituvchiga yanada mas'uliyatliroq bo'lishni talab qiladi. Hozirgi kunga kelib bilimsiz o'qituvchining o'quvchilarga dars berishi judayam qiyin, chunki hozirgi bolalar judayam ongli va bilimli. Bu esa, o'z navbatida o'qituvchi ham zamon bilan hamnafas bo'lib yashash uchun harakat qilishiga sabab bo'ladi. Adabiyot darslari judayam muhim ahamiyatga egadir. Chunki, bolada vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, vijdon, or-nomus shu kabi tuyg'ular aynan adabiyot darslarida shakllanadi, demak o'qituvchining mas'uliyati ko'proq. U fanga o'quvchini qizitira olishi zarur. Buning uchun u darsda turli texnologiyalardan foydalandi. Ushbu texnologiyadan biri bu interfaol usullar hisoblanadi. Bu usullar ham darsda judayam zo'r natijalarni bera

oladi. Interfaol usullar o'zi bu nima, u qanday qulayliklarga ega degan savol tug'iladi. Interfaol usulni qo'llaganda hammasidan ko'ra bellashuv, raqobat, tortishuv ruhiyatini intellektual faolligiga kuchli ta'sir etadi. Bu insonlar uyushgan holda muammoni yechishni izlaganlarida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, shunday psixologik omillar ta'sir qiladigan, atrofdagilar tomonidan bildirilgan har qanday fikrga o'zining shunga o'xshash, yaqin yoki aksincha mutlaqo qaramaqarshi fikr bildirishga da'vat etadi. Bu esa bolaning fikrlashiga, uni erkin aytta bilish qobilyatini rivojlantirishga ham sabab bo'ladi. Adabiyot darslarining vazifasi ham aslida o'quvchini erkin fikrini chiroqli dalillar asosida nuqsonsiz ifodalanishini o'rgatishdan iborat. Lekin o'qituvchiga bo'lgan talablar ortadi. Bunday mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchidan ancha ko'p ijodkorlik va faollik talab etiladi. Oldindan ma'lum yoki ancha ko'p ijodkorlik va faollik talab etuvchi kitobdan o'qiganlarini hikoya qilish shaklidagi dars passiv darajada o'tadi. Interfaol usuli nafaqat ta'limda balki, tarbiyada ham ayniqsa yaxshi natija keltiradi, ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda o'qituvchi muhokamaga ta'sir qilganda nafaqat fikr bildiradi, balki muammoga o'zining shaxsiy munosabatini, axloqiy mavqeyi va dunyoqarashini bildiradi. O'quvchilar bahsida o'qituvchini ishtiroki turlicha bo'lishi mumkin. Lekin har qanday holatda ham o'zini fikrini o'tkazmasligi kerak, balki xato bo'lsada o'quvchi fikrini oxirigacha tinglash zarur. Yaxshisi bahsni boshqarishda yaxshilab hisoblab chiqilgan usul, sermahsul fikrlashni, yechimini topishda ijodiy izlanuvchanlikni talab etuvchi o'yinlarni o'ynash yoki muammoli savol qo'yish orqali boshqarish lozim. Bu bilan o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida munosabat o'rnatiladi, fikr almashinish kuzatiladi. Qarshi fikrlar ham bo'lishi mumkin, lekin bu ijobiy tomon bo'ladi. Chunki o'rtada bahs-munozara avj oladi, hamma o'zining erkin fikrini aytadi. O'qituvchi shu fikrlardan xulosa qilgan holda, o'quchilarining xato va kamchiliklarini bartaraf qilishga harakat qiladi. Shu tartibda, interfaol o'qitish usuli, o'quvchilarining hamkorlikdagi faoliyati o'qituvchining bahslardagi ishtiroki tufayli dars jarayonini nafaqat hamkorlikdagi faoliyati bo'ladi, balki shaxsning ijtimoiy munosabatlarining real ijodiy sermahsul faoliyatiga aylanadi. O'qishdagagi hamkorlik o'z-o'zidan o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, to'g'ridan-to'g'ri ularning ichki dunyosiga ta'sir etadi va dars jarayonini asosiy tarbiyaviy funksiyasi ham bajarib keladi.

Interfaol o'qitish usuliga quyidagilar kiradi:

- Evrestik suhbat;
- Bahs usuli;
- Aqliy hujum;
- Ishbilarmon o'yinlar usuli;
- Davra stoli;
- Muhokama qilinuvchi va bevosita ustoz bilan amalga oshiriladigan usullar.

Keyingi paytlarda ilg'or tajribali o'qituvchilar tamonidan darsning seminar -dars, bahs – dars, suhbat – dars, sinov – dars, konferensiya – dars, sayohat-dars kabi turlari o'tkazilmoqda. Bunday dars turlari o'quvchining dars paytidagi loqaydligiga barham berib, unda faollikni uyg'otadi, bolani o'ylashga, muhokamali fikr yuritishga,

so'zlashga va izlanishga hamda mehnat qilishga o'rgatadi. Adabiyot darslarida xususan ko'pchilik o'qotuvchilar "BBB", "Baliq skleti", «Aqliy hujum», «Zakovat», «Modul dars», «Zigzag» sinflari o'yinlardan, interfaol usullardan ko'p foydalanishadi. Bu usullar ham judayam samarali. Umuman olganda, o'qituvchi jamiyat uchun xizmat qilayotgan ekan, hech qachon izlanishdan charchamasligi, bir joyda to'xtab qolmasligi zarur. Hozirgi zamon shiddati yangiliklarni har daqiqada ilm-fanga tatbiq qilyapti, ulardan soha bo'yicha unumli foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Zero, O'qituvchi nimanidir o'rgatuvchi emas, balki o'quvchiga allaqachon bilgan narsalarni ochib berishga yordam beradigan odamdir (Paulo Koelo)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <http://library.navoiy-uni.uz>
2. <https://fayllar.org>
3. <https://e-library.namdu.uz>
4. То'xliyev.B: "Adabiyot o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma – Toshkent .:A.N nomidagi O'zbek Milliy kutubxonasi nashiryoti.2010
5. Авезова, Д. (2022). Инсоният тарихида БЮОК ЛЕВ ТОЛСТОЙ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 17(17). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7234
6. Авезова, Д. (2022). статья Методика преподавания языка иностранным студентам. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 25(25).
7. Abdurasulovna, B. M. (2022). Clinical Features of Rheumatoid Arthritis in Patients at the Age of Older 60 Years Old. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3(6), 650-655.
8. Авезова, Д. (2022). МОРФОНОЛОГИЧЕСКИЕ ЯВЛЕНИЯ В РУССКОМ СЛОВООБАЗОВАНИИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
9. Авезова, Д. (2022). КАКИЕ ГРАММАТИЧЕСКИЕ КАТЕГОРИИ ЯВЛЯЮТСЯ ОБЩИМИ ДЛЯ ЧАСТЕЙ РЕЧИ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ?. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
10. Авезова, Д. (2022). ОСНОВНЫЕ РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ СТРУКТУРОЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).
11. Farkhodovna, K. F., Rakhmatulloevna, N. U., & Abdurasulovna, B. M. (2022). ETIOLOGY OF CHRONIC RHINOSINUSITIS AND EFFECTIVENESS OF ETIOTROPIC TREATMENT METHODS (LITERATURE REVIEW). Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4), 377-381.
12. Авезова, Д. (2022). статья Составные части и их выражение в творчестве Абдуллы Каҳхора. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).
13. Авезова, Д. (2022). Spirituality Маънавият инсонни комилликка етаклайди. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).

14. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 1-4.
15. Mamadjanova, M. U. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.